

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN KONTAKT TARMOG'I FANIDAN MALAKA TEST SINOV TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Kontakt tarmog'i fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Kontakt tarmog'i

1. Kontakt tarmog'i va havo liniyalari;
- 2.Kontakt tarmog'ining simlari va troslari;
3. Rels zanjirlari erlagich,himoyali qurilma xavfsiz mehnat sharoitlarini tashkillashtirish;
- 4.Tok qabul qilgich va kontakt osma uzararo ta'siri;
- 5.Kontakt osmalarning anker uchastkalar.Ularning tuzilishi va bog'lanish.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Kontakt tarmog'i va havo liniyalari	Transport tizimlarida elektr energiyasi bilan ishlovchi vositalarning samarali va xavfsiz ishlashini ta'minlash, kontakt tarmoqlari va havo liniyalarini loyihalash, montaj qilish, ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarini chuqur o'rganish, elektr energiyasini uzatish va taqsimlashning asosiy qonuniyatlari, texnologik va xavfsizlik talablarini hisobga olgan holda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, innovatsion metod va usullardan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish, kontakt tarmoqlari va havo liniyalari sohasi uchun nazariy bilimlar, texnologik jarayonlar, ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha asosiy masalalar, sohaga oid standartlar, normalar va jamiyatning transport va energiya tizimini optimallashtirish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	17.5 %	7 ta
2	Kontakt tarmog'ining simlari va troslari	Kontakt tarmoqlarida ishlatiladigan simlar va troslarning turlari, texnik xususiyatlari va ishlash sharoitlarini chuqur o'rganish, ularni tanlash, montaj qilish va ekspluatatsiya qilish jarayonlarini amaliy ko'nikmalar bilan mustahkamlash, mexanik, elektr va issiqlik xususiyatlarini hisobga olgan holda xavfsiz va samarali ishlashni ta'minlash, kontakt tarmoqlari va havo liniyalari sohasida innovatsion metod va texnologiyalardan foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish, bo'lim doirasida nazariy bilimlar, texnologik jarayonlar, xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha asosiy masalalar, materiallar turlari va ulardan foydalanish qonuniyatlari, shuningdek jamiyatning transport tizimini optimallashtirishga oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	27.5 %	11 ta
3	Rels zanjirlari, erlagich, himoyali qurilmalar xavfsiz mehnat sharoitlarini tashkillashtirish	Rels zanjirlari va erlagichlarning tuzilishi, ishlash prinsiplari va texnik xususiyatlarini o'rganish, himoyali qurilmalar yordamida transport tizimlarining xavfsizligini ta'minlash, ish jarayonlarida xavfsiz mehnat sharoitlarini tashkil etish va texnologik me'yorlarga rioya qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, rels zanjirlari va himoyali qurilmalar sohasi uchun nazariy va amaliy bilimlar, texnik va xavfsizlik talablariga	20 %	8 ta

		asoslangan metod va usullar, xavf-xatarlarni oldini olish va ularni boshqarish strategiyalari, innovatsion texnologiyalardan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish, shuningdek jamiyat transport tizimida xavfsiz va samarali ishlashni ta'minlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.		
4	Tok qabul qilgich va kontakt osma uzararo ta'siri	Tok qabul qilgichlar va kontakt osma qurilmalarning tuzilishi, ishlash prinsiplari va texnik xususiyatlarini chuqur o'rganish, ularning o'zaro ta'sirini tahlil qilish va optimal ishlash sharoitlarini ta'minlash, elektr transport tizimlarida energiya uzatishni samarali va xavfsiz tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish, tok qabul qilgichlar va kontakt osma sohasi uchun nazariy bilimlar, texnologik jarayonlar, xizmat ko'rsatish va texnik ekspluatatsiya bo'yicha asosiy masalalar, xavfsizlik va mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya qilish, innovatsion metod va texnologiyalardan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish, shuningdek transport tizimining ishonchliligi va samaradorligini oshirish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	15 %	6 ta
5	Kontakt osmalarining anker uchastkalar.Ul arning tuzilishi va bog'lanish	Kontakt osmalarining anker uchastkalari, ularning tuzilishi, material xususiyatlari va ishlash prinsiplari, turli qismlarining o'zaro bog'lanishi va montaj texnologiyasini chuqur o'rganish, elektr transport tizimlarida kontakt osmalarining ishonchli va xavfsiz ishlashini ta'minlash ko'nikmalarini rivojlantirish, kontakt osma sohasi uchun nazariy bilimlar, texnologik jarayonlar, xizmat ko'rsatish va texnik ekspluatatsiya bo'yicha asosiy masalalar, xavfsizlik va mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya qilish, innovatsion metod va texnologiyalardan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish, shuningdek transport tizimlarining samarali va uzluksiz ishlashini ta'minlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	20 %	8 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %

2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. S.F.Amirov, I.N.Bayanov <<Kontakt tarmog'i>>

2. Баянов И.Н., Турдибеков К.Х. Технология мотажа и ремонта контактной сети // Республиканская научно-техническая конференция с участием зарубежных ученых, 2-3 декабря 2010. – Ташкент, 2010.–с.113–116.

3. Баянов И.Н. Контакт тармоғи. Ўқув қулланма. Т.: Fan va texnologiya. 2010.-152б.

4. Вологин В.А. Взаимодействие токоприемников и контактной сети. Москва.: Интекст, 2006. – 256 с.

5. Михеев В.П. Контактные сети и линии электропередачи. М.: Маршрут, 2003. – 416 с.